


KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

muammo va yechimlar” mavzusida 2025 yil 12 fevralda respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 361-365

6. Sadullaeva U. V. The role of HEMIS in the management of the educational system of higher education institutions //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. 2023.—T. 20. — C. 19-22.
7. Ubaydullaeva V. Uzluksiz ta’lim tizimida ta’limning texnologiyalarini qo‘llash muammolari //Science technology&Digital finance. — 2023. — T. 1. — №. 3. — C. 132-143.
8. Убайдуллаева В. Фанларни ўқитишда инновацион ёндашув //Академические исследования в современной науке. — 2023. — Т. 2. — №. 14. — С. 134-137.
9. Ubaydullaeva Vasila Sadullaeva-2024- “ Ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirish va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish” *International Scientific and Practical Conference*, 1(2), 242-246.
10. Ubaydullaeva V. Digitization-an important “Driver” of the development of New Uzbekistan //Информатика и инженерные технологии. — 2023. — Т. 1. — №. 2. — S. 173-176.
11. Ubaydullaeva, V. (2024).Raqamlashtirish-yangi ao‘zbekiston rivojlanishining muhim “DRIVERI”. *Science technology&Digital Finance*, 2(3), 18-22.

BOZOR INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Dilshodov Shoxabbos Bekzod o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filliali Iqtisodiyot yo‘nalishi 332-25 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor infratuzilmasining mazmuni va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Asosiy e’tibor infratuzilmani zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish yo‘nalishlariga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar, moliyaviy xizmatlar, logistika tizimi va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirishning dolzarbligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Bozor infratuzilmasi, Vositachi institutlar, Modernizatsiya, Integratsiya, Moliyaviy bozor, Axborot-kommunikatsiya tizimlari, iqtisodiy samaradorlik, bozor mexanizmi, brokerlik xizmatlari, bozor ishtirokchilari.

Kirish

Bozor infratuzilmasi iqtisodiyotning raqobat bardoshligi va barqarorligi uchun muhim poydevor hisoblanadi. U moliyaviy institutlar, transport va kommunikatsiya tarmoqlari, mehnat bozorini ta’minlovchi tuzilmalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston sharoitida infratuzilmani modernizatsiya qilish iqtisodiy o‘zlashni tezlashtirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun strategik yo‘nalish sifatida

belgilangan. Jahon banki 2025-yilgi mamlakat bo‘yicha iqtisodiy memorandum ham infratuzilmani rivojlantirish zaruratini qayd etadi.

Ibragimova M. B.ning tadqiqotida ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari (sanoat, transport, energetika) o‘rtasida integratsiyani mustahkamlash taklif etiladi. Bu integratsiya raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Moliyaviy infratuzilma jihatidan, fond bozorining rivoji juda muhim. Jo‘rayev S. maqolasida fond birjasi, markaziy depozitariy, brokerlik va kliring kompaniyalari, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasining iqtisodiy taraqqiyotga bevosita ta’siri ta’riflangan.

Shuningdek, infratuzilmaning axborot va kommunikatsiya yo‘nalishi O‘zbekistonda strategik ahamiyatga ega. Renessans-edu nashrida keltirilgan iqtisodiyot darsligida transport va yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish muhimligi qayd etilgan.

Mehnat bozori infratuzilmasini takomillashtirish O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim o‘rin tutadi. Bozorov A. va Shadmanov E. ma’lumotlariga ko‘ra, davlat va nodavlat bandlik xizmatlarini rivojlantirish, migratsiya siyosatini tartibga solish va kasbiy malaka oshirish markazlari tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu yo‘nalish raqobatbardosh mehnat kuchini yaratishga va ishsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda risklarni baholash va boshqarish muhimdir. Zilola Yusupovanning tadqiqotida O‘zbekiston infratuzilma loyihalarida risk turlarini tahlil qilish metodlari, davlat-xususiy sheriklik (PPP) loyihalarida xavflarni kamaytirish usullari ko‘rib chiqilgan.

Bundan tashqari, qurilish infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda soliq vositalarini joriy etish muhimligi ta’kidlangan. Sharipov E. maqolasida soliqqa oid rag‘batlantirish choralari orqali infratuzilma investitsiyalarini ko‘paytirish bo‘yicha takliflar bor.

O‘zbekistonda infratuzilmani rivojlantirishda Xalqaro hamkorlik ham katta rol o‘ynaydi. Kucharov va Meshram tahlili shuni ko‘rsatadiki, Hindiston investitsiyalari transport, logistika va energetika infratuzilmasini modernizatsiyalashda katalizator sifatida ishlayapti. Shuningdek, yurtimizda xalqaro bozorlar va birjalarni rivojlantirish maqsadida “ConFEAS 2024” xalqaro birja anjumani bo‘lib o‘tgan. Bu anjuman tovar va moliyaviy bozor infratuzilmasining global integratsiya yo‘nalishlarini muhokama qilish imkonini berdi. Shunday qilib, infratuzilmani takomillashtirish orqali O‘zbekiston nafaqat ichki bozorini mustahkamlaydi, balki xalqaro investitsiyalarni ham jalb qiladi. “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi O‘zbekistonda infratuzilmaning hududiy jihatdan teng ravishda rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Loyihaga 5 viloyat kirgan va uning maqsadi mahalliy infratuzilmani kuchaytirishdir. Shuningdek, Kun.uz saytida e’lon qilingan tahlilda, mamlakat strategiyasi bo‘yicha yo‘l va transport infratuzilmasining modernizatsiyasi raqamli integratsiya va mintaqaviy bog‘liqlikni oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. O‘zbekiston sharoitida infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi davlat va xususiy sektor

hamkorligini kuchaytiradi, bozor mexanizmlari samaradorligini oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlaydi

Bozor infratuzilmasi tarkibiga moliya bozori, transport-kommunikatsiya tarmoqlari, mehnat bozorini ta‘minlovchi xizmatlar, axborot-kommunikatsiya tizimlari va boshqa vositachi institutlar kiradi. Ibragimova M. B. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ularning o‘zaro integratsiyasini kuchaytirish iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

Moliyaviy infratuzilmaning zamonaviy talablarga moslashuvi bozor mexanizmlarining to‘g‘ri shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jo‘rayev S. tadqiqotida fond bozori infratuzilmasining institutsional mustahkamlanishi, axborot texnologiyalarining joriy etilishi va brokerlik xizmatlarining modernizatsiyasi iqtisodiy faollikni oshiruvchi asosiy omil sifatida ta‘riflangan. Bozor infratuzilmasi tarmoqlarining rivojlanishi bozor ishtirokchilarining harakatini yengillashtiradi, axborot almashinuvini tezlashtiradi, resurslarning qayta taqsimlanishini samarali tashkil etadi va iqtisodiyotning umumiy barqarorligini mustahkamlaydi. Moliyaviy infratuzilmaning tarkibiga bank tizimi, sug‘urta bozori, lizing kompaniyalari, fond bozori institutlari va to‘lov tizimlari kiradi. O‘zbekistonda ushbu infratuzilma bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda. Fond bozori infratuzilmasini rivojlantirishga doir ilmiy manbalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal joriy etilishi hamda birja faoliyatining xalqaro standartlarga moslashtirilishi iqtisodiy muvozanatni mustahkamlovchi omil sifatida qayd etilgan. Sug‘urta hamda mikromoliyaviy xizmatlarning kengayishi bozor infratuzilmasining tarkibiy mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish esa infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Mehnat bozori infratuzilmasi tashkilotlari — bandlik xizmatlari, kasbiy o‘qitish va qayta tayyorlash markazlari, mehnat migratsiyasi agentliklari, axborot platformalari — bozor munosabatlarining samarali amalga oshirishini ta‘minlaydi. Bozorov A. va Shadmanov E.ning ilmiy ishlari asosida mehnat bozori infratuzilmasini modernizatsiya qilish mehnat resurslarining malakasini oshiradi, ishsizlikning oldini oladi va iqtisodiy faollikni kengaytiradi. Mehnat bozori xizmatlarining raqamlashtirilishi, bandlik agentliklarining zamonaviy platformalarga o‘tkazilishi hamda kasb-hunar ta‘limining takomillashtirilishi infratuzilmaning samaradorligini oshiruvchi asosiy yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatiladi.

Transport va logistika infratuzilmasi bozor mexanizmining uzviy qismi bo‘lib, tovarlar harakati, ishlab chiqarish zanjiri va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun poydevor vazifasini bajaradi. Renessans-edu nashrida transport infratuzilmasining rivojlanishi ichki bozorni barqarorlashtiruvchi, hududiy rivojlanish farqlarini kamaytiruvchi va tashqi savdo hajmini oshiruvchi omil sifatida yoritilgan. Yangi transport koridorlari, avtomobil yo‘llari, logistika markazlari, bojxona tizimidagi raqamli mexanizmlar bozor infratuzilmasining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilamoqda. Yusupova Z. ilmiy maqolasida infratuzilma loyihalarining real sektordagi investitsion jarayonlarga bevosita bog‘liqligi ta‘kidlanadi. Risklarni boshqarish mexanizmlari, xususan, davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari, investorlar

uchun qulay huquqiy muhit yaratilishi infratuzilma loyihalarining barqaror amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Sharipov E. tomonidan ta’kidlanganidek, soliq rag‘batlantirish vositalari infratuzilma investitsiyalarining kengayishi va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi.

O‘zbekistondagi bozor infratuzilmasini rivojlantirish xalqaro investitsiyalar va orqali kuchaymoqda. Bozor infratuzilmasi modernizatsiya qilinib, iqtisodiy samaradorlik oshirilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kucharov, A. & Meshram, J. — O‘zbekistonda infratuzilmani rivojlantirish: Hindiston sarmoyasi uchun katalizator. ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ.
2. Narziyev, U. — O‘zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.
3. Turdiyeva, Irodaxon — Temir yo‘l va intermodal transport tizimining rivojlanishi: investitsiyalar, xarajatlar va samaradorlik tahlili.
4. Kazakova, Z., Tursunaliyev, A., Toshniyozov, A. — O‘zbekistonda logistika markazlarini rivojlantirish: holat va istiqbollar.
5. Saidov, V. A. — O‘zbekiston transport infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asosi. Journal of New Century Innovations.
6. Raximov, X. S. — O‘zbekistonda temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy-matematik modeli. Innovations in Science and Technologies.
7. Boltakov S., Zulfakarova L. METHODS OF DIGITAL TRANSFORMATION OF SERVICE PROCESSES: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15628733> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 110-113.
8. Bo‘ltakov S., Naimjonov S. MAMLAKATIMIZDA SOLIQ TO'LOVLARINI RAQAMLASHTIRISH. YANGI DAVR MOLIVAVIY ADOLAT SARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15558777> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 380-382.
9. Aliqulova S., Nizametdinov A., Bo‘ltakov S. RAQAMLI JAMIYATNING UMUMIY ASOSLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15314208> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 12-17.
10. Qarshiboyeva G., Nizametdinov A., Bo‘ltakov S. RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOBIL TEXNOLOGIYALAR: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15314346> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 18-24.